

**SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.04/05.05.2023.Tib.102.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI**

**MUZAFFAROVA NARGIZA SHUXRATOVNA**

**DEGENERATIV-DISTROFIK KASALLIKLARIDA  
VERTEBROBAZILYAR SOXADA QON AYLANISHINING  
XUSUSIYATLARINI TEKSHIRISH VA DAVOLASH USULLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**14.00.13 – Nevrologiya**

**TIBBIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Oglavlenie avtoreferata dissertatsii doktora (PhD) filosofii Contents of**  
**dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Muzaffarova Nargiza Shuxratovna**

Degenerativ-distrofik kasalliklarida vertebrobazilyar soxada qon aylanishining xususiyatlarini tekshirish va davolash usullarini takomillashtirish. .... 3

**Музаффарова Наргиза Шухратовна**

Особенности кровообращения в вертебробазиллярной системе при дегенеративно-дистрофических заболеваниях и совершенствование методов их диагностики и лечения ..... 29

**Muzaffarova Nargiza Shukhratovna**

Features of blood circulation in the vertebrobasilar system in degenerative-dystrophic diseases and improvement of methods for their diagnosis and treatment..... 57

**Eʼlon qilingan ishlar roʻyxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 63

**SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.04/05.05.2023.Tib.102.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI**

**MUZAFFAROVA NARGIZA SHUXRATOVNA**

**DEGENERATIV-DISTROFIK KASALLIKLARIDA  
VERTEBROBAZILYAR SOXADA QON AYLANISHINING  
XUSUSIYATLARINI TEKSHIRISH VA DAVOLASH USULLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**14.00.13 – Nevrologiya**

**TIBBIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand 2025**

**Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Tib3557 raqam bilan ro'yhatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat tibbiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb- sahifasida ([www.sammu.uz](http://www.sammu.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xakimova Soxiba Ziyadulloevna**

Tibbiyot fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy aponentlar:**

**Niyozov Shuhrat Tashmirovich**

Tibbiyot fanlari doktori, dotsent

**Yakubova Marxamat Mirakramovna**

Tibbiyot fanlari doktori, professor.

**Yetakchi tashkilot:**

**Abuali ibni Sino nomidagi**

**Tojikiston davlat tibbiyot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand Davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalarlar beruvchi DSc.04/05.05.2023.Tib.102.03 raqamli Ilmiy Kengashning 2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140100, O'zbekiston Respublikasi, Samarqand shaxri, Ankabay ko'chasi, 6-uy. Tel.: (+99866) 233-08-41; faks: (+99866) 233-71-75; e-mail: [sammu@sammu.uz](mailto:sammu@sammu.uz))

Dissertatsiya bilan Samarqand Davlat tibbiyot universitetining Axborot-resurs markazidatanishish mumkin (№ \_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140100, O'zbekiston Respublikasi, Samarqand shaxri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy. Tel.: (+99866) 233-08-41; faks: (+99866) 233-71-75;

Diccertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ da tarqatildi.

(2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reectr bayonnomaci)

**N.N. Abdullaeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

**K.V. Shmirina**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, tibbiyot fanlari nomzodi, v.v.b dotsent

**Z.B. Kurbaniyazov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, tibbiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Tibbiyotning ustuvor muammolari orasida vertebro bazilyar yetishmovchiligi (VBY) ko'p yillar davomida yetakchi o'rinni egallab kelmoqda, bu nafaqat kasallikning tibbiy, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarining jiddiyligini, balki bemorlar soni bo'yicha doimiy ravishda o'sib borishi bilan ham bog'liq. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) ma'lumotlariga ko'ra «...rivojlangan mamlakatlarda uning tarqalishi 40-80% ga yetadi va yillik kasallanish 5% ni tashkil qiladi...»<sup>1</sup>. Ko'plab tadqiqotlar kasallikning etiologik omillari va patofiziologik mexanizmlarini aniqlashga, vertebro bazilyar yetishmovchiligi kasalligini tashxislash, davolash va oldini olishga bag'ishlangan bo'lib, ularning natijalari asosan tibbiy amaliyotga muvaffaqiyatli kiritilmoqda. Shu bilan birga, vertebro bazilyar yetishmovchiligi kasalliklari bilan kasallanish va o'lim darajasi hali ham yuqori darajada bo'lib qolmoqda. Bosh miya qon tomirlari kasalliklari (BMQTK) - muhim tibbiy va ijtimoiy muammo bo'lib, o'limning, yurak-qon tomir va onkologik kasalliklaridan keyingi uchinchi sababi xisoblanadi

Jaxonda, turli ma'lumotlarga ko'ra, 50% dan 90% gacha aholisi hayotining ma'lum bir bosqichida umurtqa pog'onasining degenerativ-distروفik kasallilari bilan bog'liq og'riqlarga duch kelishadi. Nevrologiyada umumiy qabul qilingan "vertebro bazilar yetishmovchiligi" (VBY) atamasi vertebral va bazilyar arteriyalar tomonidan oziqlanadigan hududga qon ta'minoti pasayishi natijasida miya funksiyalarining qaytariladigan buzilishini anglatadi. VBY ning klinik ko'rinishlari keng o'zgaruvchanlik bilan tavsiflanadi: bosh og'rig'i va bosh aylanishidan boshlab to bosh miyada qon aylanishining o'tkir buzilishlarigacha (tranzitor ishemik ataka, kichik insultlar).

Mamlakatimizda aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini tubdan yaxshilash va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada «...Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish, shuningdek, tibbiy standartlashtirish tizimini shakllantirish, tashxis qo'yish va davolashning yuqori texnologik usullarini joriy qilish, dispanserizatsiyaning samarali modellarini yaratish orqali, sog'lom turmush tarzini qo'llab quvvatlash va kasalliklarni profilaktika qilish...»<sup>2</sup> ga qaratilgan muhim vazifalar belgilangan. Kursatilgan vazifalarni amalga oshirishda aholi orasida nevrologik kasalliklarini tarqalishi xavf omillarini erta aniqlash va asoratlarning oldini olishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish, keyinchalik aholiga tibbiy ijtimoiy yordam to'laqlonligini oshirish va nogironlik ko'rsatkichlarini pasaytirish, hayot sifatini oshirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 07 dekabrda PF-5590 son "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni, 2020 yil 12 noyabrda PF-6110-son "Birlamchi sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatiga prinsipial yangi mexanizmlarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni, O'zbekiston

<sup>1</sup> WHO. World health statistics, 2013; WHO.Hearts: technical package for cardiovascular disease management in primary health care, 2018

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 декабрьдаги 5590-сонли "Соғлиқни сақлаш тизимини tubdan такомиллаштириш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисидаги" Фармони.

Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 noyabrdagi PQ-4887- son “Sog‘liqni saqlash sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya tadqiqoti muayan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VI. “Tibbiyot va farmakologiya” ustuvor yo‘nalishlarga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** “Degenerativ-distrofik kasalliklarida vertebrobazilyar soxada qon aylanishining xususiyatlarini tekshirish va davolash usullarini takomillashtirish” mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar va klinik amaliyotlar bir qancha jihatlardan o‘rganilgan. Bu soha bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlar bo‘yin umurtqalari degenerativ kasalliklari va vertebrobazilyar qon aylanishining buzilishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, ularni aniqlashda yangi diagnostik usullarning takomillashtirilishini va davolash usullarini o‘rganishga qaratilgan.

Vertebrobazilyar qon aylanishining buzilishi ko‘pincha bo‘yin osteoxondrozi, spondiloz va boshqa degenerativ kasalliklar bilan bog‘liq. Bu holat miya qon tomirlarining torayishi yoki siqilishiga olib keladi, bu sa bosh aylanishi, bosh og‘rig‘i, vertigo, muvozanatni yo‘qotish va miya ishemiyasiga olib kelishi mumkin. Ushbu kasalliklar, ayniqsa, vertebrobazilyar arteriyaning siqilishi yoki torayishi natijasida paydo bo‘ladi. Insonlarning 70-90% aksariyat qismi umrida kamida bir necha bor bosh aylanishi hamda bosh aylanishiga duch kelgani ko‘rsatilgan (Barulin A.E., 2019).

Vertebrobazilyar yetishmovchilik (VBY) – miya orqa qismini qon bilan ta‘minlovchi vertebral va bazilyar arteriyalar tizimida qon aylanishining buzilishi natijasida rivojlanadigan patologik holat. Ushbu kasallik bo‘yicha dunyo miqyosida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan va uning etiopatogenezi, diagnostikasi hamda davolash usullari keng o‘rganilgan. VBY ning patogenezi bo‘yicha tadqiqotlar Caplan L.R. (2015) – vertebrobazilyar tizimdagi ishemik insult mexanizmlarini chuqur o‘rgangan. Uning tadqiqotlarida arteriyalarning aterosklerotik torayishi, emboliya va gemodinamik buzilishlar VBY rivojlanishining asosiy sababchilari sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Thomalla G. (2017) – vertebral arteriyalardagi dinamik stenozlar va gemodinamik o‘zgarishlar VBY klinik simptomatikasiga qanday ta‘sir qilishini aniqlagan. Markus H.S. (2018) – VBY bo‘lgan bemorlarda mikroemboliyalar va gipoperfuziya rolini ko‘rsatib, ularning TIA (o‘tkinchi ishemik xurujlar) va insult xavfini oshirishini tasdiqlagan. VBY da diagnostika usullarini o‘rganish Hershey L.A. (2016) – MR-angiografiya vertebrobazilyar tizimdagi stenoz va okklyuziyalarni aniqlash uchun eng muhim usullardan biri ekanligini tasdiqlagan. Rothwell P.M. (2019) – transkraniyal dopplerografiya (TKDG) yordamida vertebral arteriyalar orqali qon oqimi tezligini baholash natijalarini taqdim etgan. Ushbu usul ayniqsa, dinamik monitoring uchun samarali ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Schaefer P.W. (2021) – diffuziya-vaziyatli MRT vertebrobazilyar insultlarni erta tashxislashda sezgirligi yuqori ekanligini ko‘rsatgan. VBY ning klinik simptomatikasini o‘rganish Dieterich M., Brandt T. (2015) – VBY ning asosiy simptomlaridan biri vertigo ekanligini tasdiqlagan.

Tadqiqotlar natijasida vestibulyar tizim ishemiyasi VBY ning tipik belgilaridan biri ekanligi aniqlangan. Kim J.S. (2017) – okulomotor buzilishlar (nistagm, diplopiya, muvozanat buzilishi) vertebrobazilyar insultning dastlabki belgilaridan biri bo‘lishi mumkinligini isbotlagan. Savitz S.I. (2020) – VBY bo‘lgan bemorlarda kognitiv buzilishlar va xotira pasayishi kuzatilishi mumkinligini ko‘rsatgan. VBY ning davolash usullarini o‘rganish

Bamford J.M. (2018) – antikoagulyant va antitrombotsitar terapiya VBY bo‘yicha eng samarali konservativ yondashuvlardan biri ekanligini ta’kidlagan.

O‘tkazilgan tadqiqotlarga qaramasdan, xorijiy adabiyotlarda, xususan O‘zbekistonda ham, vertebrobazilyar yetishmovchiligi diagnostikasi, uning degenerativ kasalliklardagi patogenetikasidagi roli haqida yagona fikr mavjud emas. Shu sababli bu mazkur masalaga yo‘naltirilgan tadqiqotlarni davom ettirish muhim amaliy ahamiyatga ega.

**Dissertasiya tadqiqotining, dissertasiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat tibbiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 012000260- sonli “Insonlarning yuqumli va yuqumli bo‘lmagan etiologiyali ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklarini oldini olish, tashxislash va davolashning ilg‘or texnologiyalarini ishlab chiqish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** degenerativ-distروفik kasalliklarida vertebrobazilyar soxada qon aylanishining xususiyatlarini tekshirishni va davolash usullarini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

bo‘yin umurtqalarining degenerativ-distروفik kasalliklarida vertebrobazilyar soxada qon aylanishi buzilishining etiopatogenetik xususiyatlari, klinik-nevrologik ko‘rinishi va diagnostik natijalarning ahamiyatini baxolash;

bo‘yin umurtqalarining degenerativ-distروفik kasalliklarida vertebrobazilyar soxada qon aylanishi buzilishi bor bemorlarda qonda vitamin D va litiyning darajasini aniqlash va patogenezidagi rolini o‘rganish;

vertebrobazilyar havzasida qon aylanishi buzilgan bemorlarda og‘riq sindromi, bosh aylanishi, vegetativ va psixopatologik o‘zgarishlarning xususiyatlarini baholash hamda ularning epizodlarini oldindan prognoz qilish uchun bosh aylanishi kundaligini ishlab chiqish;

kelib chiqish omillariga binoan bo‘yin umurtqalarining degenerativ-distروفik kasalliklarida aniqlangan klinik-patogenetik, instrumental va laborator natijalarga asoslangan xolda tadbir etilayotgan davolashning samaradorligini baxolash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida 2022-2024 yillar davomida Samarkand shahar tibbiyot birlashmasi markaziy shifoxonasi nevrologiya bo‘limida bo‘yin umurtqalari degenerativ-distروفik kasalliklar bilan davolangan 121 bemor (asosiy guruh-65 va qiyosiy guruh-56) tadqiqot uchun olingan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida klinik-nevrologik, neyrovizual, nefrofiziologik va psixovegetativ tadqiqotlar natijalari tashkil qildi.

**Tadqiqotning usullari:** tadqiqotni bajarishda umumiy klinik, klinik-nevrologik, psixovegetatik, neyrovizualizatsion (bo‘yin umurtqalari

rentgenografiyasi, MRT, KT), laborator (vitD, Li-mikroelementi), instrumental (UZDG, MRT-angiografiya), va statistik usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bo'yin umurtqalari degenerativ-distروفik kasalliklari bilan kechuvchi vertebrobazilyar sindromi bo'lgan bemorlarda bosh aylanish simptomining shakllanishi va og'irligi bir nechta patogenetik omillar xususan, bo'yin sohasidagi qon oqimining buzilishi, D vitamini yetishmovchiligi va suyak mineral zichligining kamayishi bilan kompleks tarzda bog'liqligi aniqlangan;

degenerativ-distروفik kasalliklarda vertebrobazilyar yetishmovchiligi bilan og'riغان bemorlarda "bosh aylanish kundaligi" dan foydalanish orqali bosh aylanish epizodlarini oldindan sezish va ularni profilaktika qilish imkoniyati ilmiy jihatdan asoslangan;

vertebrobazilyar yetishmovchilik va degenerativ-distروفik kasalliklar bilan bog'liq tashvish sindromining litiy preparati orqali korreksiya qilinishi klinik samaradorlikka ega ekanligi tasdiqlangan;

tadqiqot natijalariga ko'ra, D vitamini va litiy preparatlarining qo'shma qo'llanilishi vertebrobazilyar yetishmovchilikka chalingan bemorlarda UZDG ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga, vertebral arteriyalarda qon oqimi tezligining oshishiga, turbulentlikning kamayishiga va ekstravazal kompressiyaning pasayishiga olib kelish imkonini ilmiy jihatdan asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

vertebrobazilyar sindromi bo'lgan bemorlarda bo'yin umurtqalari degenerativ-distروفik kasalliklari fonida bo'yin sohasidagi qon tomirlarida qon oqimining kamayishi ushbu patologiyaning muhim gemodinamik belgisi sifatida aniqlangan. Shuningdek, D vitamini yetishmovchiligi va suyak zichligining pasayishi bosh aylanishi bilan bog'liq ekani aniqlanib, ular vertebrobazilyar yetishmovchilik patogenezida muhim omillar sifatida tasdiqlangan;

bosh aylanishi kundaligidan foydalanish, bemorlarga bu holatini oldindan aniqlash va profilaktika qilish imkonini berib, individual davolash va reabilitatsiya strategiyalarini shakllantirishga yordam beradi, bosh aylanishi chastotasi, og'irligini kamaytirishga hamda terapevtik samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi;

litiy terapiyasi vertebrobazilyar yetishmovchilik va degenerativ-distروفik kasalliklar bilan bog'liq tashvish sindromini samarali korreksiya qilish imkonini berib, psixosotsial barqarorlik va kompleks davolash samaradorligini oshirishga yordam beradi;

vitamin D va litiy preparatlarining qo'shma qo'llanilishi vertebrobazilyar yetishmovchilik bilan bog'liq gemodinamik buzilishlarni tuzatishda samarali ekanligini tasdiqlaydi, UZDG ko'rsatkichlarining yaxshilanishi, vertebral arteriyalarda qon oqimining tezlashishi va ekstravazal kompressiyaning pasayishi, bosh aylanishi simptomlarini kamaytirishga qaratilgan kompleks yondashuv sifatida qo'llanishini ilmiy asoslaydi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotning uslubiyati va dizayni amaliy sog'liqni saqlash darajasida bajarilganligi; tadqiqotning o'zi mazkur tadqiqot uchun qo'yilgan maqsad, vazifalar va predmetlarga mos holda bajarilganligi,

zamonaviy usul va yondashuvlarning qo'llanilganligi, nazariy ma'lumotlarning olingan natijalar bilan mos kelishi, olib borilgan tekshiruvlarning uslubiy jihatdan to'g'riligi, bemorlar sonining yetarliligi, matematik-statistik tadqiqot usullariga asoslanganligi, tashxislash va profilaktik davolashni optimallashtirish natijalari xalqaro hamda mahalliy tajribalar bilan taqqoslanganligi, xulosa hamda olingan natijalarning vakolati tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nevrologik va angionevrologik amaliyotda bosh aylanishi va vertebro bazilyar yetishmovchilik bilan bog'liq diagnostika hamda davolash yondashuvlarini takomillashtirishga ilmiy asos yaratib, nazariy bilimlar darajasini kengaytirishga xizmat qiladi. Bosh aylanishi kundaligidan foydalanish, shuningdek, vitamin D va litiy kombinatsiyasining terapevtik samaradorligi kasallikning patogenetik jihatlarini chuqurroq tushunish va klinik amaliyotda shaxsiylashtirilgan yondashuvlarni rivojlantirish imkonini beradi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati. bosh aylanishi kundaligidan foydalanish, bosh aylanishini oldindan prognoz qilish va profilaktika choralarini qo'llash imkonini berishini ko'rsatdi. Vitamin D va litiy terapiyasi vertebro bazilyar yetishmovchilikda qon oqimini yaxshilash, simptomlarning og'irligini kamaytirish va davolash samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Ushbu yondashuv klinika amaliyotida bemorlarni individual boshqarish va reabilitatsiya taktikasini optimallashtirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi** degenerativ-distروفik kasalliklarda vertebro bazilyar sohada qon aylanishining xususiyatlarini tekshirish va davolash usullarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida (O'zbekiston Respublikasi SSV Ilmiy texnik kengashining 15.02.2025 y. 12/07 son xulosasi):

birinchi ilmiy yangilik: bo'yin umurtqalari degenerativ-distروفik kasalliklari bilan kechuvchi vertebro bazilyar sindromi bo'lgan bemorlarda bosh aylanish simptomining shakllanishi va og'irligi bir nechta patogenetik omillar xususan, bo'yin sohasidagi qon oqimining buzilishi, D vitamini yetishmovchiligi va suyak mineral zichligining kamayishi bilan kompleks tarzda bog'liqligi aniqlangan. Ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi: Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani tibbiyot birlashmasi 06.01.2025 № 1/2025 sonli buyruq va Qashqadaryo viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi 14.01.2025 № 30 sonli buyruqlari bilan amaliy faoliyatiga joriy qilingan. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi: DDK VBY bilan kasallangan bemorlarda MSKT tekshiruvining aniqlik darajasi 93,1%, bo'yin tomirlarining ultratovush doplerografiyasi 86,8% va qonda vitamin D 86,7%, hamda Li-mikroelementi miqdori 76,7% ni tashkil etib, bunda DDK VBY bilan kasallangan bemorlarda ulardan foydalanish zarurligini asoslaydi, shuningdek, erta va aniq tashxislash imkonini beradi. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat: DDK VBY bilan kasallangan bemorlarda klinik nevrologik, neyrovizualizatsiya, instrumental parametrlar va laboratoriya biomarkerlari o'rganilib, buning natijasida kasallikni erta tashxislash orqali davolash samaradorligini oshirishga erishilgan va yotoq kunini o'rtacha 3 kunga qisqartirishga erishildi. 1 nafar bemor uchun bu 600 000 so'mlik xarajatni tejash imkonini berdi. Natijada yil davomida ushbu usul qo'llanilgan 100 nafar bemor

misolida sogʻliqni saqlash xarajatlari 60 million soʻmga kamaydi. Xulosa: DDK VBY bilan kasallangan bemorlarda aytib oʻtilgan diagnostika jarayonida kasallik va uning asoratlarini erta tashxislash samaradorligi oshirilishi natijasida bemorlarning shifoxonada davolanish vaqtini kamaytirish imkonini bergan.

ikkinchi ilmiy yangilik: boʻyin umurtkalari degerativ-distروفik kasalliklari bor bemorlarda D vitamini yetishmovchiligi va suyak mineral zichligining pasayishi darajasi bilan bosh aylanishining aloqasi aniqlangan; Ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi: Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani tibbiyot birlashmasi 06.01.2025 № 1\2025 sonli buyruq va Qashqadaryo viloyati koʻp tarmoqli tibbiyot markazi 14.01.2025 № 30 sonli buyruqlari bilan amaliy faoliyatiga joriy qilingan. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi: taklif etilgan tekshiruv usullari boʻyin umurtkalari degerativ-distروفik kasalliklari bilan ogʻrigan bemorlarda vertebrobazilyar buzilishlarni erta tashxislash va shu sababli kasallik qaytalanishi, nogironlik koʻrsatkichini pasaytirish imkonini berdi. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi: Tadqiqot natijasida tavsiya etilgan diagnostika va baholash yondashuvlari yordamida boʻyin umurtqalari degenerativ-distروفik kasalliklari bilan ogʻrigan bemorlarda vertebrobazilyar sindromning qaytalanish koʻrsatkichi 15% ga kamaytirildi. Bu orqali yil davomida kamida 100 nafar bemor orasida 120 million soʻmlik sogʻliqni saqlash xarajatlari oldi olindi. Xulosa: boʻyin umurtkalari degerativ-distروفik kasalliklari bilan kasallangan bemorlarda vertebrobazilyar buzilishlarni erta tashxislash va kasallik asoratlarini, xususan, profilaktika qilish va shu sababli kelib chiqadigan nogironlik miqdorini kamaytirish imkonini bergan.

uchinchi ilmiy yangilik: DDK vertebrobazilyar yetishmovchiligi bilan ogʻrigan bemorlarda bosh aylanishi kundaligidan foydalanish orqali bosh aylanish epizodlarini oldindan sezish va ularni profilaktika qilish imkoniyati ilmiy jihatdan asoslangan. Ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi: Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani tibbiyot birlashmasi 06.01.2025 № 1\2025 sonli buyruq va Qashqadaryo viloyati koʻp tarmoqli tibbiyot markazi 14.01.2025 № 30 sonli buyruqlari bilan amaliy faoliyatiga joriy qilingan. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi: bemorlarning hayot sifatini oshirish, ularning mehnatga layoqatligini saqlash, sogʻliqni saqlash tizimini optimallashtirish va aholining profilaktik tibbiyotga boʻlgan eʼtiborini oshirish bilan namoyon boʻladi. Bu esa jamiyatning umumiy salomatligini yaxshilash va sogʻliqni saqlash tizimidagi iqtisodiy yukni kamaytirish imkonini berdi. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat: kasallikning asoratlarini kamaytirish hisobiga 1 nafar bemorga 1 kunda kasalxonadan tashqari reabilitatsiyasi uchun 210 000 soʻmni iqtisod qilish samaradorligini berdi. Tadqiqotning umumiy iqtisodiy samaradorligi 1 nafar bemor uchun 2 100 000 soʻmni tashkil qildi. Xulosa: VBY bilan kasallangan bemorlarda neyrovaskulyar buzilishlarni patogenetik davolashni optimallashtirish tufayli kasallik asoratlarini kamaytirish va reabilitatsiyaga sarflanuvchi ortiqcha xarajatlarni kamaytirish imkonini berdi.

toʻrtinchi ilmiy yangilik: vertebrobazilyar yetishmovchilik va DDK bilan bogʻliq tashvish sindromining litiy bilan korreksiya qilinishi klinik samaradorligi tasdiqlandi. Ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi: Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani tibbiyot birlashmasi 06.01.2025 № 1\2025 sonli buyruq va Qashqadaryo viloyati koʻp tarmoqli tibbiyot markazi 14.01.2025 № 30 sonli

buyruqlari bilan amaliy faoliyatiga joriy qilingan. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi: bo‘yin umurtqalari degenerativ-distروفik kasalliklarda vertebrobazilyar yetishmovchiligi bilan kasallangan bemorlarda an’anaviy davo terapiyasiga o‘z vaqtida litiy preparatini qo‘shish nevrologik asoratlarni oldini olishga, bosh miyada qon aylanishi buzilishidan keyingi kasalliklarning rivojlanishini sekinlashtirishga yordam beradi. Li-mikroelementi miqdori pasayishi surunkali VBY da tashvish va depressiya holatlarini keltirib chiqarayotgani kuzatildi. Bu esa vertebrobazilyar sindromi qo‘zg‘olish davrida to‘g‘ri tanlangan patogenetik davolashni amalga oshirish imkonini berdi. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat: 1 nafar bemorning shifoxonadagi davolanish muddatini 9–10 kundan 6 kunga qisqartirish orqali, sharoitga ko‘ra shifoxonada qolish to‘lovi 1 nafar bemor uchun 802 500 so‘mga kamaytirildi (preyskurant bo‘yicha 1 kun – 127 500 so‘m); Davolash muddati qisqarishi tufayli 1 kunda o‘rtacha 140 000 so‘mlik dori vositalari iqtisod qilindi. Xulosa: tadqiqot natijalari asosida shakllantirilgan asosiy xulosalar va tavsiyalar turli darajadagi tibbiyot muassasalarida bo‘yin umurtqalari degenerativ kasalliklari bilan kechuvchi vertebrobazilyar buzilishlarga ega bemorlarni diagnostika qilish va davolashda qo‘llash uchun mo‘ljallangan yondashuvlar sifatida tavsiya etildi. Ushbu yondashuvlar samaradorlikni oshirish, davolashdan keyingi reabilitatsiya davrini qisqartirish hamda uzoq muddatli davrda kasallikning qaytalanish xavfini kamaytirish imkonini berdi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 4 ilmiy-amaliy konferensiyalari muhokama qilindi, shu jumladan 2 xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalari muhokama qilindi.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10-ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 8-ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 1-tasi xorijiy va 1-ta Scopus jurnallarda nashr etilgan hamda 1 ta ixtiro patenti tavsiya etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 4-ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 109 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati ochib berilgan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatib berilgan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi hamda tadqiqotning ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi yoritib berilgan. Shuningdek, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti va usullari tizimli ravishda keltirilgan. Mazkur qismda dissertatsiya natijalarning ilmiy yangiligi va ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, olingan natijalarning ishonchligi ko‘rsatilgan, ishning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan hamda tadqiqot natijalarining joriy qilinishi ifodalangan bo‘lib, aprotatsiya hamda tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi hamda ishning hajmi va tuzilishiga oid ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Bo‘yin umurtqalari degenerativ-distrofik kasalliklarida vertebrobazilyar yetishmovchilikning shakllanishi, tashxisi va davolashning patogenetik mexanizmlarining zamonaviy tushunchasi**" (adabiyot sharhi) deb nomlangan birinchi bobida oltita bo‘limdan iborat bo‘lib, vertebrobazilyar yetishmovchilikning rivojlanish sababi, patogenezi, tashxislash va davolashga doir mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar xulosasining ilmiy asoslangan tahlili, mavjud tashxislash usullarining afzallik va kamchiligi nazariy tahlil qilindi, shuningdek muammoning hal qilinmagan yoki aniqlik talab qiladigan tomonlari ko‘rsatildi.

Dissertatsiyaning "**Klinik material va tadqiqot usullarining umumiy tavsifi**" deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotning asosiy material va usullari ko‘rsatilgan, bunda tadqiqotda ishtirok etgan bemorlarga tavsif berilgan, shuningdek, olingan natijalarni statistik qayta ishlash usullari keltirilgan.

Ilmiy tadqiqot ishini olib borishda degenerativ-distrofik kasalliklarida vertebrobazilyar yetishmovchiligi bilan og‘rigan 121 nafar bemor ishtirok etgan bo‘lib, ular Samarqand shaxar tibbiyot birlashmasi markaziy shifoxonasi nevrologiya bo‘limida 2022-2024-yillarda statsionar sharoitida davolangan.

Bemorlar guruhlariga bo‘lingan:

- 1 - guruh: bo‘yin umurtqalari degenerativ-distrofik kasalliklarda vertebrobazilyar yetishmovchiligi bor bemorlar (asosiy-birinchi guruh) - 65 bemor;


- 2 - guruh - bo‘yin umurtqalari degenerativ-distrofik kasalliklarda vertebrobazilyar yetishmovchiligi bo‘lmagan bemorlar (qiyosiy- ikkinchi guruh) – 56 bemor;

- 3 - guruh - nazorat guruhi vertebrobazilyar yetishmovchilik va degenerativ-distrofik kasalliklarning klinik-nevrologik belgilari bo‘lmagan, yoshi va jinsi bo‘yicha yuqoridagi guruhlar bilan taqqoslanadigan nisbatdan sog‘lom shaxslardan iborat bo‘lib, ular tibbiyot muassasalarining xodimlari orasidan tanlangan. - 30 kishi.

Asosiy guruh: ayollar: 30-39 yosh oralig‘ida –10 nafar, 40-49 yosh oralig‘ida – 11 nafar, 50-59 yosh oralig‘ida –11 nafar, 60-69 yosh oralig‘ida –5 nafar, 70-79 yosh oralig‘ida –4 nafar. Erkaklar: 30-39 yosh oralig‘ida –3 nafar, 40-49 yosh oralig‘ida –3 nafar, 50-59 yosh oralig‘ida –5 nafar, 60-69 yosh oralig‘ida –2 nafar, 70-79 yosh oralig‘ida –3 nafar. Asosiy guruhda ayollar erkaklarga nisbatan sezilarli darajada ko‘p (ayollar 46 nafar, erkaklar 19 nafar). Eng ko‘p bemorlar 40-59 yosh

oralig'ida kuzatilgan, bu esa kasallikning aynan o'rta yoshdagi odamlarda keng tarqalganligini ko'rsatadi.

Qiyosiy guruh: ayollar: 30-39 yosh oralig'ida –11 nafar, 40-49 yosh oralig'ida –8 nafar, 50-59 yosh oralig'ida –11 nafar, 60-69 yosh oralig'ida –6 nafar, 70-79 yosh oralig'ida –6 nafar. Erkaklar: 30-39 yosh oralig'ida –3 nafar, 40-49 yosh oralig'ida –3 nafar, 50-59 yosh oralig'ida –4 nafar, 60-69 yosh oralig'ida –2 nafar, 70-79 yosh oralig'ida –2 nafar. Qiyosiy guruhda ham ayollar ustunlik qiladi (ayollar 42 nafar, erkaklar 14 nafar). Yosh oralig'iga ko'ra, bu guruhda ham eng ko'p bemorlar 40-59 yosh oralig'ida joylashgan. Har ikkala guruhda ham ayollar soni erkaklardan ko'proq. Eng ko'p kasallanish 40-59 yosh oralig'ida kuzatilgan (Rasm 1). Asosiy guruhda degenerativ-distروفik kasallik va vertebrobazilyar yetishmovchilik bilan bog'liq muammolar sezilarli bo'lib, aynan shu yosh oralig'ida ko'proq uchraydi. Qiyosiy guruh bilan solishtirilganda, asosiy guruhda ayollar orasida 40-49 yosh oralig'idagi bemorlar soni ko'proq. Ushbu natijalar bo'yin umurtqalari degenerativ-distروفik kasalliklari va vertebrobazilyar yetishmovchilikning o'rta va katta yoshli ayollar orasida keng tarqalganligini ko'rsatadi.



**1-Rasm.** Bemorlarning yoshi va jinsi bo'yicha taqsimlanishi

VBY diagnostikasi nevrologiya bo'limi mutaxassislari bilan birgalikda Butunjahon assotsiasiyasining Xelsinki deklarasiyasi doirasida 2000 yilda o'zgartirilgan "Inson sub'ektlari ishtirokidagi ilmiy va tibbiy tadqiqotlarning axloqiy tamoyillari" doirasida o'tkazildi. Barcha tekshirilgan bemorlar anamnezni qiyosiy o'rganish, to'liq fizik tekshiruv, batafsil nevrologik status, laboratoriya tekshiruvlari, qonda vitamin D hamda Li-mikroelementining miqdorini aniqlash, paraklinik tadqiqotlar (ultratovush doplerografiya, MR-angiografiya, MRT, KT), Bemorlarda og'riq intensivligini, bosh aylanishi, tashvish va depressiya darajasini VASh, DHI, HADS shkalalari orqali baxolangan.

Klinik-psixopatologik va vegetativ tadqiqot usullariga alohida e'tibor qaratiladi. Eng qiziqarli usullardan biri bemorlarga maxsus ishlab chiqilgan bosh aylanishi kundaligi bo'ldi. Kundalik yordamida bemorni holatini oldindan aniqlash va profilaktika qilish, individual davolash va rehabilitatsiya strategiyalarini shakllantirishi ko'rsatildi, bosh aylanishi chastotasi, og'irligini kamaytirishga hamda terapevtik samaradorligi qayt etilgan.

Ma'lumotlarning statistik tahlili IBM SPSS Statistics 23 dasturi yordamida o'tkazilgan. Miqdoriy ma'lumotlarda statistik jihatdan ahamiyatli farqlarni aniqlash uchun bog'liq o'zgaruvchilar uchun Uilksxon testi va bog'liq bo'lmagan

o'zgaruvchilar uchun Mann–Uitni testi qo'llanilgan, sifatli qiymatlar uchun esa Fisherning aniq testi ishlatilgan. Guruhlararo farqlar  $p < 0,05$  da ishonchli deb hisoblangan.

Uchinchi bobda “Bo'yin umurtqalari degenerativ-distروفik kasalliklarida vertebrobazilyar sohada qon aylanishi buzulishida klinik-psixopatologik va vegetativ sindromlarning namoyon bo'lishi hamda laborator va neyrovizualizasion tekshiruv natijalari”, muallif ikki guruhning tekshirilgan bemorlarida quyidagi tadqiqotlarni o'tkazadi: anamnezni yig'ish; status praesens obectivus; nevrologik tekshiruv; VASh; DHI (Dizziness Handicap Inventory) bosh aylanishini baxolash shkalasi: HADS (Hospital Anxiety and Depression Scale) tashvish va depressiya ni baxolash shkalasi; neyroivizualizatsiya tadqiqotlari; qonning laborator tahlili; rentgen tekshiruvi; KT, MRT; UTDG natijalari keltirilgan.

### 1-jadval

#### Bemorlarda nevrologik simptomlar uchrash chastotasi

Nevrologik simptomlar	Bemorlar guruxi N=121	
	Asosiy guruh, n=65	Qiyosiy guruh, n=56
<b>Bosh og'rig'i</b>	bo'yin, yelka va orqa sohasida kuzatiladi va aniq paroksizmal xarakterga ega	ensa sohasiga lokalizatsiya qilinadi
<b>-kuchayishi</b>	noqulay holatda uzoq vaqt qolish, aqliy yoki jismoniy zo'riqishdan keyin, meteorologik bog'liqligini	tana holatini keskin o'zgartirish, stress va mushaklarning taranglashuvi
<b>-kamayishi</b>	analgetiklar, NYQP, qon aylanishini yaxshilovchi preparatlar	analgetiklar, NYQP, Vazodilatatorlar
<b>Bosh aylanishi</b>	tizimli va tizimli bo'lmagan	muvozanat va koordinatsiya buzilishi bilan namoyon bo'ladi
<b>kuchayishi</b>	gorizontaldan xolatdan vertikal holatga o'tganda	boshning burilishi yoki egilishi bilan kuchayishi kuzatildi
<b>kamayishi</b>	xarakatlanmaganda, bosh aylanishini qoldiruvchi preparatlardan so'ng	Tinch xolatda
<b>Vegetativ buzilishlar</b>	ko'ngil aynishi, terlash, qon bosimining o'zgaruvchanligi	Ko'ngil aynishi, qusish, qon bosimining o'zgaruvchanligi
<b>Sezgi</b>	saqlangan	susaygan
<b>Reflekslar</b>	saqlangan	saqlangan

Bo'yin umurtqalari degenerativ-distروفik kasalliklarida vertebrobazilyar sohada buzilishlari tekshiruv natijalari tahlil qilingan: asosiy shikoyatlar bosh aylanishi, bosh og'rishi, bo'yindagi og'riq, og'riqni qo'llarga uzatilishi qo'llardagi uyushish qiyinligi ma'lumotlar keltirilgan (1-jadval).

Bo'yin umurtqalari osteoxondrozi fonida vertebrobazilyar sindromi bilan 65 (100%) nafar bemor tekshirildi. Ular orasida 19 (29%) nafari erkak va 46 (71%) nafari ayollar. Bemorlarning 11 (16,9%) bo'yin umurtqasining (C6-C7) disk churrasi) aniqlangan.

Ularda og'riq asosan ensa soxasida kuzatilgan 4 (3,6%) og'riq bo'yin, yelka hamda qo'llarga xam tarqaldi, 7 (6,3%) bosh aylanishi va quloqlardagi shovqin 3 (2,7%) nafar bemorda qayd etilgan. 5 (4,5%) bemorda zararlangan tomonidagi sezuvchanlik buzilishi aniqlangan. 8 (7,2%) nafar bemorda ikki boshli mushakning

old-ichki yuzasi bo‘ylab, 3 (2,7%) nafar bemorda uch boshli tashqi yuzasi bo‘ylab giperest eziya aniqlangan.

## 2-jadval

### Bemorlarda og‘riq sindromining tabiati

	Bemorlar soni guruxlarda					
	Asosiy guruh, n=65		Qiyosiy guruh, n=56		jami	
	son	%	son	%	son	%
Servikalgiya	10	15,0	1	1,7	11	9,09
Servikobraxialgiya	6	9,2	3	5,35	9	7,4
Servikokranialgiya	36	55,3	26	46,4	62	51,2
Radikulyar	55	84,6	25	44,6	80	66,11
Miofascial og‘riq	60	92,3	22	39,3	82	67,7
Vertebrobazilyar sindromga xos og‘riq	17	26,1	6	10,7	23	19

Og‘riq sindromi ko‘pincha surunkali bo‘lib, vaqti-vaqti bilan zo‘rayishlar bilan tavsiflanadi. Barcha bemorlar bo‘yin sohasidagi og‘riqlarni umurtqa pog‘onasining bo‘yin qismi yoki yelka kamariga tushadigan statik yoki dinamik yuklamalar bilan bog‘liq ekanligini ta‘kidlashdi. Servikalgiya bosh og‘riqlari bilan kamroq esa bosh aylanishi bilan bog‘lik bo‘lishi qayd etildi (2-jadval). E‘tiborga loyiq jixati, ko‘plab bemorlar umumiy zaiflik va ish qobiliyatining pasayishi (50,9%), kayfiyatning tushkunligi va ruxiy bosim, asabiylashish, xisiy beqarorlik (58,8%), uyqu buzilishlari (49,1%) haqida shikoyat qildi.

## 3-Jadval

### Bo‘yin osteoxondrozida VBY bemorlarda mushak-tonik o‘zgarishlarning lokalizatsiyasi

Klinik sindromlar	Uchrash chastotasi	Soni, n
<i>Pastki qiyshiq mushak</i>	<b>38,3%</b>	<b>25</b>
<i>Bo‘yinning chuqur bukuvchi va to‘sh-o‘mrov so‘rg‘ichsimon mushaklar</i>	<b>34,8%</b>	<b>23</b>
<i>Oldingi narvonsimon mushaklar</i>	<b>33,4%</b>	<b>21</b>
<i>Supraspinatus mushaklari</i>	<b>34,4%</b>	<b>22</b>
<i>Oldingi ko‘krak</i>	<b>20,5%</b>	<b>13</b>
<i>Yelka-kurak mushaklari</i>	<b>35,4%</b>	<b>23</b>

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bemorlarda turli mushak-guruhlarining disfunktsiyasi kuzatildi. Pastki qiyshiq mushaklarning disbalansi 38,3% (n=25) bemorda aniqlanib, boshni aylantirish va qiyshaytirish harakatlarning cheklanishi bilan namoyon bo‘ldi. Bo‘yin chuqur bukuvchi va to‘sh-o‘mrov so‘rg‘ichsimon mushaklarining funksional buzilishi 34,8% (n=23) bemorda qayd etilib, bo‘yin harakatlarning cheklanishi hamda og‘riq sindromi bilan ifodalandi. Oldingi narvonsimon mushaklarning funksional yetishmovchiligi 33,4% (n=21) bemorda kuzatilib, nevrogen komponent bilan bog‘liq og‘riq sindromi va paresteziyalar bilan xarakterlandi. Supraspinatus mushaklarining miofascial sindromi 34,4% (n=22) bemorda qayd etilib, yelka kamarining statodinamik buzilishlari, mushaklarning ortiqcha tarangligi yoki kuchsizligi natijasida harakatlarning cheklanishi bilan tavsiflandi. Oldingi ko‘krak mushaklarining funksional disbalansi 20,5% (n=13)

bemorda kuzatilib, yelka kamarining noto'g'ri holatlanishi va miofastsial og'riq sindromi bilan kechdi. Yelka-kurak mushaklarining disfunktsiyasi 35,4% (n=23) bemorda qayd etilib, yelka sohasi va kurak atrofidagi mushaklarda reflektor o'zgarishlar hamda mushak-tonik buzilishlar bilan namoyon bo'ldi (3-jadval).

#### 4-Jadval


##### Asosiy va qiyosiy guruhlarda nevrologik statusni baxolash natijalari

Nevrologik parametr	Asosiy guruh	Qiyosiy guruh
bosh aylanishi	kuchli, tizimli	yengil yoki umuman yo'q
muvozanat buzilishi	chayqalish, ataksiya, Romberg xolatini ijobiy	yo'q yoki minimal
nistagm	mavjud	kuzatilmaydi yoki juda kuchsiz
ko'rish buzilishi	vaqtinchalik xiralashish	kuzatilmaydi
eshitish buzilishi	quloqda shovqin, eshitish pasayishi	yo'q
xarakat	past darajali parezlar	yo'q
mushak tonusi	distoniya, vestibulospinal reflekslar zaiflashgan	bo'yin va yelka mushaklarida taranglik
reflekslar	Babinski, Rossolimo, Bekhterev reflekslari ijobiy	normal yoki biroz oshgan
sezgirlik buzilishi	termik, vibratsion va proprioseptiv sezgirlik pasaygan	mahalliy mushak og'rig'i va sezgirlik oshishi
vestibulospinal reflekslar	zaiflashgan	saqlangan

Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, degenerativ-distrofik kasalliklarga chalingan bemorlarning asosiy shikoyatlaridan biri bosh aylanishi bo'lib, asosiy guruh bemorlarining 90.8% (59 nafarida) intensiv, tizimli va muvozanat buzilishi bilan kechuvchi shaklda kuzatilgan, qiyosiy guruhda esa 25% (14 bemorda) bosh aylanishi yengil darajada namoyon bo'lgan.


Shuningdek, muvozanat buzilishi asosiy guruh bemorlarining 78.5% (51 nafarida) qayd etilib, ularda chayqalish, ataksiya hamda Romberg xolatining ijobiy natijasi kuzatilgan. Qiyosiy guruhda esa ushbu simptom 10.7% (6 bemorda) aniqlanib, muvozanat buzilishining yengil darajada namoyon bo'lishi bilan ajralib turgan (4-jadval).

Nistagm asosiy guruhda 63% (41), qiyosiy guruhda esa 5.3% (3) da kuzatilgan. Ko'rish buzilishi asosiy guruhning 55.4% (36) da, eshitish buzilishi 60% (39) da aniqlangan bo'lsa, qiyosiy guruhda bu ko'rsatkich mos ravishda 3.6% (2) va 7.1% (4) ni tashkil etgan. Harakat cheklanishi asosiy guruhning 47.7% (31) da qayd etilgan, qiyosiy guruhda esa kuzatilmagan. Mushak tonusi oshishi asosiy guruhning 70.8% (46) da, qiyosiy guruhda 39.3% (22) da aniqlangan. Reflekslar o'zgarishi (Babinski, Rossolimo, Bekhterev reflekslari) 50.8% (33) da ijobiy bo'lib, qiyosiy guruhda 12.5% (7) da kuzatilgan. Sezgirlik buzilishi asosiy guruhning 65% (42) da aniqlanib, qiyosiy guruhda 21.4% (12) da qayd etilgan. Shuningdek, vestibulospinal reflekslarning zaiflashishi va vestibulyar muvozanat buzilishi asosiy guruhning 60% (39) da, qiyosiy guruhning 16.1% (9) da kuzatilgan. Ushbu natijalar degenerativ-distrofik kasalliklar fonida vertebrobazilyar yetishmovchilikning nevrologik simptomlarni kuchaytirishini tasdiqlaydi (Rasm 2).




**2-Rasm.** Neurologik simptomlarning guruhlar bo'yicha taqsimlanishi

Tadqiqotimiz doirasida degenerativ-distrofik kasalliklarga (DDK) chalingan bemorlarda laborator tekshiruvlar yordamida qon zardobidagi vitamin D va litiy mikroelementi darajalarini aniqlash, ularning DDK patogenezdagi o'rnini, ta'sir mexanizmlari va klinik ahamiyatini baholash asosiy maqsad etib belgilandi.



**3-Rasm.** Guruhlar bo'yicha vitamin D va litiy mikroelementlarning darajasi

Davolashgacha bo'lgan bosqichda asosiy guruh bemorlarida vitamin D darajasi o'rtacha 22,51 ng/ml, qiyosiy guruhda esa 25,59 ng/ml ni tashkil etgan. Shu bilan birga, litiy darajasi asosiy guruh bemorlarida 0,49 mmol/L, qiyosiy guruhda esa 0,7 mmol/L bo'lib, DDK fonida ushbu mikroelementlarning yetishmovchiligi kuzatildi (Rasm 3).




**4-Rasm.** Asosiy va qiyosiy guruhlarda UZDG ko'rsatkichlari taqqoslanishi

Vertebral arteriyalar asimmetriyasi asosiy guruh bemorlarida qiyosiy guruhga nisbatan ancha yuqori bo'lib ((42) 64,6% ga nisbatan (18) 32,1%), bu VBY rivojlanishiga moyillikni oshiradi. Arteriyalarning stenozlari (torayishi) asosiy

guruhda sezilarli darajada ko‘p uchraydi ((27) 41,5% ga nisbatdan (9) 16,1%), bu esa bosh aylanishi va miya gipoksiyasi oshganligi kuzatildi. Ekstravazal kompressiya VBYS bo‘lgan bemorlarning yarmidan ko‘pida aniqlangan 35 (53,8%), VBYSiz guruhda esa bu ko‘rsatkich ancha past 12 (21,4%).


Bazilyar arteriyada turbulent qon oqimi, gipoplaziya va gemodinamik buzilishlar VBYS bilan og‘rigan bemorlar orasida sezilarli darajada ko‘proq uchragan. Postural testlarda qon oqimining keskin o‘zgarishi VBYS bilan bemorlarning yarmiga yaqinida qayd etilgan 31 (47,7%), qiyosiy guruhda esa bu ko‘rsatkich ancha past 11 (19,6%) (Rasm 4).

Funksional spazm va distoniya VBYS mavjud bemorlar orasida 22 (33,8%) holatda qayd etilgan, bu esa qiyosiy guruhga nisbatan sezilarli farq qiladi.



#### **5-Rasm. Guruhlararo kompyuter tomografiyasi natijalari tahlili**



Yuqoridagi diagrammada kompyuter tomografiyasi natijalari tahlil qilinganda servikal umurtqa pog‘onasida kuzatilgan degenerativ-distrofik jarayonlarning asosiy va qiyosiy guruhlar bo‘yicha taqsimoti aks ettirilgan. Servikal osteoxondroz asosiy guruh bemorlarida ( $\approx 65\%$ ) qiyosiy guruhga ( $\approx 56\%$ ) nisbatan ko‘proq uchragan. Bu vertebrobazilyar yetishmovchilik bilan bog‘liq patologik jarayonlarning og‘irroq kechishi va umurtqa pog‘onasining degenerativ shikastlanishlari bilan izohlanadi. C3-C6 darajasida disk churrallari asosiy guruhda 40% (26), qiyosiy guruhda 25% (14) hollarda qayd etilgan. Spondiloz va osteofitlar asosiy guruh bemorlarining taxminan 52% (34), qiyosiy guruhda ushbu ko‘rsatkich 30% (17) ni tashkil etadi. Fasetal disfunktsiya va uncovertebral artroz asosiy guruh bemorlarida 50% (32), qiyosiy guruhda esa taxminan 28% (16) kuzatilgan. Orqa umurtqa suyaklarining degenerativ o‘zgarishlari asosiy guruhda 45% (29), qiyosiy guruhda esa 25% (14) ni tashkil qildi (Rasm 5).




#### **6-Rasm. Asosiy guruh bemorlarida o‘tkazilgan KT-angiografiya natijalari**

Asosiy guruh bemorlarida o'tkazilgan KT-angiografiya natijalari vertebrobazilyar tizimdagi struktura va qon aylanishining sezilarli darajada buzilganligini ko'rsatdi (Rasm 6). Tadqiqot davomida 25 nafar bemorning 28% (7) bir tomonlama vertebral arteriya stenoz, 20% (5) esa ikki tomonlama vertebral arteriya stenozlari qayd etildi. Ushbu holatlar vertebrobazilyar yetishmovchilikning shakllanishida muhim rol o'ynaydi va miyaning orqa qismlarining qon bilan ta'minlanishini buzishi mumkin. Bazilyar arteriya stenozining mavjudligi 16% (4) bemorlarda aniqlandi. Shu bilan birga, bemorlarning 24% (6) ekstravazal kompressiya (C3-C6 darajasida) kuzatildi. Qon oqimining asimmetriyasi 36% (9) bemorlarda qayd etildi. Vertebral arteriya inversiyasi esa 44% (11) bemorlarda aniqlanib, bu patologiya odatda arterial oqimning fiziologik yo'nalishi o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, kislorod yetishmovchiligiga sabab bo'lishi ko'rsatdi. Bundan tashqari, gemodinamik ahamiyatga ega bo'lgan stenoz 24% (6) bemorlarda qayd etildi. Ushbu stenozlar miya qon aylanishining yetarli darajada bo'lishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida baholanadi.

